



UO'T:575.1:633.5

Gulzira NARKIZILOVA,
O'zMU tayanch doktoranti
E-mail: gulziranarkizilova@gmail.com

Mirvaxob MIRAXMEDOV,
O'zMU dotsenti, b.f.n
E-mail: miraxmedov.mirvaxob@mail.ru

Sayfulla BOBOYEV,
O'zMU b.f.d., professor
E-mail: boboyev.1979@mail.ru

PSUITI Sirdaryo ITS ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, q.x.f.d., k.i.x. O.E. Qo'chqorov taqrizi asosida

INHERITANCE OF SOME MORPHOECONOMIC CHARACTERISTICS IN HYBRIDS OF COTTON F1

Abstract

The article presents an analysis of results of inheritance of traits such as branching, duration of the period from germination to revealing 50% bolls, fiber yield, fiber length, weight of raw cotton in one boll, weight of 1000 seeds and micronaire in parental forms and F1 hybrid combinations. Results obtained that in the inheritance of these traits, depending on the genotype of parents showed, there are intermediate inheritance, dominance, as well as positive and negative heterosis.

Key words: Cotton, variety, line, family, hybrid, period from germination to revealing 50% bolls, fiber yield, fiber length, weight of raw cotton in one boll, weight of 1000 seeds.

НАСЛЕДОВАНИЕ НЕКОТОРИХ МОРФОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ У ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА F1

Аннотация

В статье представлен анализ результатов наследования типа ветвления, продолжительности периода от всходов до 50% раскрытия коробочек, выхода волокна, длины волокна, массы хлопка-сырца одной коробочки, массы 1000 штук семян и микроныра у родительских форм и гибридных комбинаций F1. Полученные результаты показали, что в наследовании этих признаков в зависимости от генотипа родительских форм имеет место промежуточное наследование, доминирования, а также положительный и отрицательный гетерозис.

Ключевые слова: Хлопчатник, сорт, линия, семья, гибрид, период от всходов до 50% раскрытия коробочек, выход волокна, длина волокна, масса хлопка-сырца одной коробочки, масса 1000 штук семян.

G'1 G'O'ZA DURAGAYLARIDA AYRIM MORFOXO'JALIK BELGILARINI IRSIYLANISHI

Annotatsiya

Maqolada ota-ona shakllari va G'1 duragay kombinatsiyalarida shoxlanish tipi, unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr, tola chiqimi, tola uzunligi, bitta ko'sakdagi paxta vazni va 1000 dona chigit vazni belgilarining irsiylanishi bo'yicha olingan natijalar tahlili keltirilgan. Olingan natijalar ushbu belgilarni ota-ona genotipiga bog'liq xolda oraliq irsiylanishini, ustunlik hamda ijobiy va salbiy geterozis xolatlarida irsiylanishini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: G'o'za, nav, tizma, oila, duragay, unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr, tola chiqimi, tola uzunligi, bitta ko'sakdagi paxta vazni, 1000 dona chigit vazni.

Kirish. So'nggi yillarda respublikamizda g'o'za ekiladigan maydonlarni qisqarishi hisobiga tayyorlanagan paxta xom-ashyosi miqdorini pasayib ketmasligini ta'minlash uchun asosiy e'tibor har bir gektar hisobiga olinadigan hosildorlikni oshirishga qaratilmoqda. Bu vazifani amalga oshirish yo'llaridan biri gektar hisobiga ko'chatlar soni oshirish hisoblanadi. Biroq tup sonini oshirish uchun mos bo'lgan va ishlab chiqarish talablariga javob beradigan g'o'za navlari yaratilmagan. Shu sababli ixcham tup tuzilishiga ega bo'lishi bilan bir qatorda qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega navlarni yaratish genetika va seleksiya sohalari oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi g'o'zaning turli shoxlanish tipiga ega nav tizma va oilalari ishtirokida olingan yangi duragaylarda shoxlanish tiplari va ayrim muhim qimmatli xo'jalik belgilarni irsiylanish qonuniyatlarini o'rganish asosida noyob rekombinantlar yaratishdan iboratdir.

Tadqiqot obyekti va uslubi. Tadqiqot obyekti sifatida tajribaga T-282-85, T-1380 tizmalari, O-107-12, O-87-91, O-160-71 oilalari, Baraka-79, SP-1303, Saxovot, SP-1303 (yig'iq forma) navlari va ular ishtirokida olingan 6 ta G'1 duragay kombinatsiyalarda jalb etildi. Shoxlanish tipi, unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr, tola chiqimi, tola uzunligi, bitta ko'sakdagi paxta vazni va 1000 dona chigit vazni belgilarining irsiylanishini tahlil etishda matematik-statistik qayta ishlovlar B.A.Dospexov (1985) bo'yicha olib borildi.

Shoxlanish tipi. Duragaylashda foydalanilgan ota-ona shakllaridan T-282-85 tizmasi va Baraka-79 navi cheklangan tipdagi shoxlanishga ega

bo'lgan bo'lsa, SP-1303 Saxovot, SP-1303 (yig'iq forma) navlari, T-1380 tizmasi va O-107-12, O-87-91, O-160-71 oilalari cheklanmagan hosil shoxlariga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu nav, tizma va oilalar ishtirokida 6 ta F1 duragay kombinatsiyalar olindi va ularda shoxlanish tipining irsiylanishi tahlil etildi.

Cheklangan tipdagi shoxlanishga ega bo'lgan T-282-85 tizmasi va Baraka-79 navi bilan cheklangan tipdagi shoxlanishga ega bo'lgan oila, tizma va navlar ishtirokida olingan duragaylarda cheklanmagan shoxlanish tipi ustunlik qilib, barcha o'simliklar cheklanmagan tipdagi shoxlanishga ega bo'ldi (jadval). Olingan natijalar cheklanmagan shoxlanish tipi cheklangan shoxlanish tipi ustidan to'liq ustunlik qilishi xaqidagi bir qator olimlarning (N.G.Simongulyan, S.R.Muhamadxonov va A.N.Shafrin, 1974) fikrlarini yana bir bor tasdiqladi.

Nihollar unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr. Duragaylashga jalb etilgan ota-ona shakllari orasida SP-1303 g'o'za navida nihollar unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr 116 kunni tashkil etib, nav o'zini tezpishar ekanligini ko'rsatdi. Saxovot navi va O-107-12, O-160-71 oilalarining nisbatan kechpishar ekanligi aniqlandi. Ularning nihollar unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davri 120-121 kunni tashkil etdi. Qolgan nav va namunalarning bu belgi bo'yicha ko'rsatkichlari 118-120 kun oralig'ida bo'ldi.

F1 duragaylarning nihollar unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davri kombinatsiyalarga bog'liq holda 115,0-119,0 kun oralig'ida bo'ldi. Ushbu avlod duragaylaridan G'1SP-1303xT-282-85 va G'1 SP-1303 (yig'iq forma) x Baraka-79 kombinatsiyalarida belgining o'rtacha ko'rsatkichi 116,0 kunni tashkil etib, o'rganilgan duragaylar orasida eng yaxshi natijani ko'rsatdi. Duragaylar orasida nisbatan kechpisharlik G'1 O-87-91xSaxovot kombinatsiyasida kuzatilib, ushbu kombinatsiyaning o'rtacha ko'rsatkichi $x=121\pm 1,9$ kunni tashkil etdi (jadval).

G'1O-87-91xSaxovot duragay kombinatsiyasida ijobiy geterozis ($x=121\pm 1,9$ kun; $hp=1,0$) G'1SP-1303xT-282-85 ($x=116\pm 1,7$ kun; $hp=-1,0$), G'1O-107-12xT-282-85 ($x=118\pm 2,1$ kun; $hp=-3,0$), G'1O-160-71x Baraka-79 ($x=117\pm 1,8$ kun; $hp=-7,0$), G'1 SP-1303 (yig'iq forma) xBaraka-79 ($x=116\pm 2,0$ kun; $hp=-3,0$) kombinatsiyalarida salbiy geterozis va G'1T-282-85xT-1380 kombinatsiyasida oraliq ($x=119\pm 1,5$ kun; $hp=-0,1$) holatdagi irsiylanish qayd etildi (tezpisharlik bo'yicha hp ko'rsatkichi salbiy bo'lishi ijobiy hisoblanadi).

Birinci avlodda salbiy geterozis holati kuzatilgan kombinatsiyalarning nihollar unib chiqishidan 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davri belgisi bo'yicha ota-ona shakllariga nisbatan 3-4 kunga tezpishar ekanligi qayd etildi.

Shunday qilib, 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr belgisining F1 duragaylarida ota-ona shakllarining genotipiga bog'liq xolda ijobiy va salbiy geterozis, hamda oraliq xolda irsiylanishi aniqlandi.

Tola chiqimi. Olimlar tomonidan tola chiqimini, genlarning murakkab o'zaro ta'siri asosida irsiylanishi, hamda kamida 2 guruh genlar nazoratida boshqarilishi aniqlangan (M.F.Abzalov, 1991) bo'lib, bu belgi boshqa belgilarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil shakllanishi ta'kidlab o'tilgan (D.A.Musayev, 1979). G'o'za seleksiyasida

№	Ota-ona va duragaylar	n	Shoxlanish tipi	50 % ko'sak ochilish davri, kun	hp	Tola chiqimi, %	hp	Tola uzunligi, mm	hp	1000 Dona chigit vazni, t	hp	Bitta ko'sak paxta vazni, t	hp	Mikon er
1	T-282-85	20	cheklangan	120 $\pm$ 1,2		36,4 $\pm$ 0,5		33,8 $\pm$ 0,6		118 $\pm$ 1,3		5,0 $\pm$ 0,3		4,8
2	Baraka-79	20	cheklangan	120 $\pm$ 0,9		36,5 $\pm$ 0,6		34,1 $\pm$ 0,5		132 $\pm$ 1,6		6,6 $\pm$ 0,3		4,6
3	SP-1303	20	cheklanmagan	116 $\pm$ 0,8		36,8 $\pm$ 0,5		34,6 $\pm$ 0,4		130 $\pm$ 1,2		6,4 $\pm$ 0,2		4,5
4	T-1380	20	cheklanmagan	118 $\pm$ 0,8		37,2 $\pm$ 0,6		35,2 $\pm$ 0,6		130 $\pm$ 1,8		6,5 $\pm$ 0,1		4,0
5	O-107-12	20	cheklanmagan	122 $\pm$ 1,6		37,0 $\pm$ 0,5		37,0 $\pm$ 0,5		136 $\pm$ 1,5		7,0 $\pm$ 0,4		4,3
6	O-87-91	20	cheklanmagan	119 $\pm$ 1,3		37,5 $\pm$ 0,6		35,0 $\pm$ 0,7		134 $\pm$ 1,3		6,5 $\pm$ 0,3		4,3
7	O-160-71	20	cheklanmagan	121 $\pm$ 0,9		36,9 $\pm$ 0,6		34,4 $\pm$ 0,5		132 $\pm$ 1,4		6,8 $\pm$ 0,2		4,7
8	SP-1303 (yig'iq for)	20	cheklanmagan	118 $\pm$ 1,0		36,2 $\pm$ 0,7		34,3 $\pm$ 0,6		140 $\pm$ 1,3		6,6 $\pm$ 0,3		4,6
9	Saxovot	20	cheklanmagan	121 $\pm$ 1,1		36,8 $\pm$ 0,5		34,5 $\pm$ 0,4		130 $\pm$ 1,2		6,2 $\pm$ 0,1		4,6
10	G'1T-282-85xT-1380	50	cheklanmagan	119 $\pm$ 1,5	- 0,1	36,4 $\pm$ 0,8	-1,0	34,9 $\pm$ 0,7	0,57	136 $\pm$ 2,4	2,0	6,1 $\pm$ 0,4	0,4 6	4,3
11	G'1SP-1303xT-282-85	50	cheklanmagan	116 $\pm$ 1,7	- 1,0	35,0 $\pm$ 0,9	-1,4	34,2 $\pm$ 1,0	0	132 $\pm$ 2,5	1,3	6,8 $\pm$ 0,5	1,6	4,7
12	G'1O-107-12xT-282-85	50	cheklanmagan	118 $\pm$ 2,1	- 3,0	37,2 $\pm$ 0,9	1,7	35,0 $\pm$ 0,8	1,0	135 $\pm$ 3,4	0,9	7,3 $\pm$ 0,4	1,3	4,5
13	G'1O-87-91xSaxovot	50	cheklanmagan	121 $\pm$ 1,9	1,0	38,0 $\pm$ 0,8	2,2 5	34,4 $\pm$ 0,9	1,0	142 $\pm$ 3,2	5,0	7,4 $\pm$ 0,6	7,0	4,5
14	G'1O-160-71xBaraka-79	45	cheklanmagan	117 $\pm$ 1,8	- 7,0	36,7 $\pm$ 0,7	0	34,6 $\pm$ 0,8	2,0	133 $\pm$ 2,5	1,0	6,7 $\pm$ 0,5	0,1	4,7
15	G'1 SP-1303 (yig'iq forma) x Baraka-79	50	cheklanmagan	116 $\pm$ 2,0	- 3,0	34,0 $\pm$ 1,0	- 15, 7	34,2 $\pm$ 1,0	0,52	140 $\pm$ 3,1	1,0	6,8 $\pm$ 0,3	0,2	4,7

tola chiqimi va tola sifatini ta'minlovchi boshqa belgilar o'rtasida mavjud bo'lgan teskari korrelyatsion bog'lanish bugungi kunga qadar yetarli darajada hal etilgani yo'q. So'nggi yillarda turli chatishtirish uslubini qo'llash asosida belgilar orasidagi ushbu bog'liqliklarni buzish tola chiqimi va tola sifati yuqori bo'lgan shakllarni ajratib olishga imkon yaratadi.

Duragaylashda ota-onalik shaklida foydalanilgan nav, tizma va oilalarning tola chiqimi bo'yicha ko'rsatkichi 36,2 foizdan 37,5 foizgacha oraliqda bo'ldi. T-1380, O-107-12, O-87-91 oilalarida tola chiqimi nisbatan yuqori bo'lib, ularning ko'rsatkichi 37-37,5 % bo'lganligi aniqlandi (jadval).

Jadval

Birinci avlod duragaylarida ayrim morfoxo'jalik belgilarining irsiylanishi

Birinci avlod duragaylarida kombinatsiyalarga bog'liq ravishda tola chiqimi belgisini oraliq, salbiy va ijobiy geterozis holatda irsiylanishi aniqlandi. G'1T-282-85xT-1380 ($hp=-1,0$), G'1SP-1303xT-282-85 ($hp=-1,4$), G'1SP-1303 (yig'iq forma)xBaraka-79 ($hp=-15,7$) kombinatsiyalarida salbiy geterozis kuzatilib, o'rtacha ko'rsatkichlar mos ravishda $x=36,4\pm 0,8\%$, $x=35,0\pm 0,9\%$, $x=34,0\pm 1,0\%$ ga teng bo'ldi.

Ijobiy geterozis G'1O-107-12xT-282-85 ($hp=1,7$), G'1O-87-91xSaxovot ($hp=2,25$) duragay kombinatsiyalarida qayd etildi. Ularda belgi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar mos ravishda $x=37,2\pm0,9\%$ va $x=38,0\pm0,8\%$ tashkil etdi. Faqatgina G'1O-160-71xBaraka-79 duragay kombinatsiyasida o'rtacha ko'rsatkich $x=36,7\pm0,7\%$ ga teng bo'lib, oraliq irsiylanish kuzatildi ($hp=0,0$).

Umuman olganda duragaylarda tola chiqimining chatishtirishda ishtirok etgan ota-ona genotipiga bog'liq ravishda oraliq, to'liq dominantlik xamda salbiy va ijobiy geterozis holatida irsiylanishi aniqlandi.

Tola uzunligi. Tola uzunligi tola sifatini belgilovchi muhim belgilardan biri hisoblanadi. Respublikamizda tola sifatini yaxshilash borasida chuqur izlanishlar olib borilishi natijasida yaratilgan g'o'za navlarining tolası dunyo bozorida haridorgir hisoblanadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, tola uzunligi murakkab irsiy belgi bo'lib, ko'pgina omillar ta'siriga bog'liq (Munasov X., Alixo'jayeva S., Muratov O., Lemeshov N., Bocharova V.M., 1993).

Tajribada ishtirok etgan ota-ona shakllaridan tola uzunligi bo'yicha eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichga O-107-12 oilasi ($x=37,0\pm0,5$ mm) va T-1380 tizmasi ($x=35,2\pm0,6$ mm) ega bo'ldi. Qolgan nav, tizma va oilalarning belgi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari bir-biridan keskin farq qilmagan holda 33,8-35,0 mm oralig'ida bo'ldi (jadval).

O'rganilgan birinchi avlod duragay kombinatsiyalarining ushbu belgi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari 34,2-35,0 mm oralig'idan o'rin egallab, eng yaxshi natija G'1 O-107-12 x T-282-85 kombinatsiyasida ($x=35,0\pm0,8$ mm) kuzatildi.

Ushbu avlodda tola uzunliginin irsiylanishida oraliq irsiylanish, ustunlik va ijobiy geterozis xolatlari aniqlandi. G'1SP-1303xT-282-85 ($x=34,2\pm1,0$ mm; $hp=0$) va G'1SP-1303 (yig'iq forma) x Baraka-79 ($x=34,2$ mm $\pm 1,0$; $hp=0,52$) duragay kombinatsiyalarida oraliq irsiylanish, G'1T-282-85xT-1380 duragay kombinatsiyasida belgining irsiylanishi T-1380 tizmasining ustunligida ($x=34,9\pm0,7$ mm; $hp=0,57$) kechganligi, xamda G'1O-107-12xT-282-85 ($x=35,0\pm0,8$ mm; $hp=1,0$), G'1O-87-91xSaxovot ($x=34,4\pm0,9$ mm; $hp=1,0$) va G'1O-160-71xBaraka-79 ($x=34,6\pm0,8$ mm; $hp=2,0$) duragay kombinatsiyalarida ijobiy geterozis xolatlari aniqlandi.

Bitta ko'sakdagi paxta vazni. Bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha o'rganilgan 9 ta ota-ona shakllaridan 8 tasida ko'rsatkichlar 6 g. dan yuqori bo'lganligini aniqlandi. Ayniqsa O-107-12 ($x=7,0\pm0,4$ g.), O-160-71 ($x=6,8\pm0,2$ g.) oilalari, Baraka-79 ($x=6,6\pm0,3$ g.) va SP-1303 (yig'iq formasi, $x=6,6\pm0,3$ g.) navlarining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lganligi qayd etildi. Faqatgina T-282-85 tizmasida bitta ko'sakdagi paxta vazni barcha ota-ona shakllari ko'rsatkichlaridan past bo'lib, $x=5,0\pm0,3$ g. ni tashkil etdi (jadval).

Ushbu shakllar ishtirokida olingan G'1 duragaylarida bitta ko'sakdagi paxta vaznining irsiylanishida oraliq irsiylanish va geterozis xolatlari kuzatildi. Jumladan G'1T-282-85xT-1380 ($x=6,1\pm0,4$ g.; $hp=0,46$), G'1O-160-71x Baraka-79 ($x=6,7\pm0,5$ g.; $hp=0,1$) G'1SP-1303 (yig'iq forma) x Baraka-79 ($x=6,8\pm0,3$ g.; $hp=0,2$) duragay kombinatsiyalarida belgining o'rtacha ko'rsatkichlari ota-ona shakllari oralig'ida bo'lib, oraliq holatdagi irsiylanish qayd etildi.

G'1SP-1303xT-282-85 ($x=6,8\pm0,5$ g.; $hp=1,6$), G'1O-107-12xT-282-85 ($x=7,3\pm0,4$ g.; $hp=1,3$) va G'1O-87-91xSaxovot ($x=7,4\pm0,6$ g.; $hp=7,0$) duragay kombinatsiyalarining o'rtacha ko'rsatkichlari har ikkala ota-ona shakllariga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo'lib, geterozis holati kuzatildi. Bu esa ajralish ketadigan keyingi avlodlardan yirik ko'sakli shakllarni ajratib olish imkoniyatini yaratadi.

1000 dona chigit vazni. 1000 dona chigit vazni belgisi bo'yicha ota-ona shakllari orasida eng past natija T-282-85 tizmasida qayd etilib, o'rtacha ko'rsatkich $x=118\pm1,3$ g. ni tashkil etdi. Ota-ona shakllari orasidan aksincha eng yuqori natija SP-1303 (yig'iq formasi) navida kuzatilib, ko'rsatkich $x=140\pm1,3$ g. ga teng bo'lganligi aniqlandi. Qolgan barcha nav, tizma va oilalarning 1000 dona chigit vazni bo'yicha ko'rsatkichlari 130 g. va undan yuqori bo'lganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, belgi bo'yicha yuqori natijalarni O-107-12 ($x=136\pm1,5$ g.) va O-87-91 ($x=134\pm1,3$ g.) oilalari ham ko'rsatdi.

Ushbu ota-ona shakllari ishtirokida olingan G'1 duragaylarning 1000 dona chigit vazni belgisi bo'yicha ko'rsatkichlari 132-142 g. oralig'ida bo'lib, nisbatan past natija G'1SP-1303xT-282-85 kombinatsiyasida ($x=132\pm2,5$ g.) kuzatilgan bo'lsa, eng yuqori natija G'1O-87-91xSaxovot duragay kombinatsiyasida aniqlandi, uning o'rtacha ko'rsatkichi $x=142\pm3,2$ g. ni tashkil etdi (jadval).

G'1T-282-85xT-1380 ($x=136\pm2,4$ g.; $hp=2,0$), G'1SP-1303xT-282-85 ($x=132\pm2,5$ g.; $hp=1,3$), G'1O-87-91xSaxovot ($x=142\pm3,2$ g.; $hp=5,0$), G'1O-160-71xBaraka-79 ($x=133\pm2,5$ g.; $hp=1,0$), G'1SP-1303 (yig'iq forma) x Baraka-79 ($x=140\pm3,1$ g.; $hp=1,0$) duragay kombinatsiyalarida belgini ijobiy geterozis xolatida irsiylanligi kuzatildi. Ushbu duragay kombinatsiyalarda 1000 dona chigit vazni bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar ota-ona shakllariga nisbatan 6-18 g. ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Faqatgina G'1O-107-12xT-282-85 duragay kombinatsiyasida ($x=135\pm3,40,9$ g.) belgini irsiylanishida onalik sifatida ishtirok etgan O-107-12 oilasining to'liq ustunlik qilganligi qayd etildi.

Umuman olganda 1000 dona chigit vazni belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan navlarni o'zaro duragaylash asosida G'1 avlodda yanada yuqori natijaga erishish imkoniyatlari mavjud ekanligi aniqlandi.

Mikroneyr. Jahon paxta bozorida tola narxini belgilovchi asosiy belgilardan biri mikroneyr ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli tola mikroneyrini irsiylanishini o'rganish juda muhim hisoblanadi. Tajribada ishtirok etgan ota-ona shakllari orasida mikroneyr ko'rsatkichi bo'yicha O-160-71 (4,7) oilasi va T-282-85 (4,8) tizmasi nisbatan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, qolgan ota-ona shakllarining barchasida mikroneyr ko'rsatkichi 4,0-4,6 oraligida bo'lib, tola sifatiga qo'yilgan bozor talablariga javob berishi aniqlandi (jadval). Shu o'rinda T-1380 (4,0) tizmasi, O-107-12 (4,3) va O-87-91 (4,3) oilalarining yuqori tola sifatiga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

G'1 duragay kombinatsiyalarida tola mikroneyr ko'rsatkichlari 4,3-4,7 oraligida bo'lib, eng yuqori natija G'1T-282-85xT-1380 kombinatsiyasida (4,3) qayd etildi. Ijobiy ko'rsatkichlar G'1 O-107-12 x T-282-85 va G'1 O-87-91 x Saxovot duragay kombinatsiyalarida ham kuzatilib, ularning ko'rsatkichlari 4,5 ga teng bo'ldi. Duragaylarning ko'rsatkichlari ota-ona shakllaridan keskin farq qilmaganligi kuzatildi. Shunday bo'lsada keyingi avlodlarda kechadigan ajralish jarayonida ota-ona shakllaridan ko'ra yuqori mikroneyr ko'rsatkichlariga ega bo'lgan shakllarni ajratib olish imkoniyati yuzaga kelishi mumkin bo'ladi.

Xulosa. G'o'zaning cheklangan va cheklanmagan shoxlanish tipiga ega shakllari ishtirokida olingan G'1 duragay avlodlarida cheklanmagan shoxlanish tipining to'liq ustunlik qilishi yana bir bor o'z isbotini topganligini, xo'jalik belgilari bo'yicha bir qator kombinatsiyalarda aniqlangan geterozis xolatlari keyingi avlodlarda ushbu belgilar bo'yicha yuqori

ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yuqori tola sifatiga ega rekombinant o'simliklarni ajratib olish mumkinligidan dalolat berishini ta'kidlab o'tish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Абзалов М.Ф. Генетика и фенотипика важнейших признаков хлопчатника *G.hirsutum* L.: д.б.н. дисс. в форме научного доклада. Москва, 1991.- 84 с.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва. Агропромиздат, 1985. С. 351.
3. Munasov X., Alixo'jayeva S., Muratov U., Lemeshov N., Bocharova V.M. G'o'za duragaylarining yettinchi va o'n birinchi bo'g'inlarida tola sifati //G'o'za genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va bedachilik to'plami. -Toshkent, FAN, 1993.- Б. 15-19.
4. Мусаев Д.А. Генетическая коллекция хлопчатника и проблемы наследования признаков. - Ташкент, Фан, 1979.- С. 164.
5. Simongulyan N.G., Muxammadxonov S., Shafrin A. G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi. - Toshkent: O'qituvchi, 1974. -215 b.